

LIDER, NUTQ, NOTIQLIK MAHORATINING PSIXOLOGIK TAVSIFI

¹Maxmatqulov Ilyos Sadulla o'g'li

Leytenant, Urgut tuman IIB JXX XPB VYBIG VYMB inspektor-psixologi,

²Nazarov Aziz Bektosh o'g'li

Leytenant, Urgut tuman IIB JXX XPB VYBIG VYMB inspektor-psixologi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7466297>

Annotatsiya: Notiqlik qobiliyatini takomillashtirish va yuksaltirishda, malakali kadrlar tayyorlashda Davlat tili – o'zbek adabiy tilining o'ziga xos o'rni va roli mavjud. Shu munosabat bilan hozirgi davrda, birinchi navbatda, Davlat tili – o'zbek tilini va kasbga oid nutq madaniyatini mukammal egallash alohida ahamiyat kasb etadi. Har bir soha egasi nafaqat notiqlik san'atini qonun qoidalarini bilishi, unga amal qilgan xolda fikrini yetkazib bera olishi lozim. Ayniqsa, lider shaxsi o'zida nutq qobiliyatini shakllantirishi juda muhim.

Tayanch so'z va iboralar: Lider, atributiv liderlik, xarizmatik liderlik, transformativ liderlik, maqsad, qat'iyatlilik, moslashuvchanlik, rahbar, qo'mondon, yo'l boshchi, yetakchi, sardor, rasmiy lider, norasmiy lider, avtoritar uslub, demokratik uslub, liberal uslub.

Har bir soha jadallik bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida lider shaxsidagi notiqlikning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini anglash, uning sivilizatsiya tarixidagi genezisi va rivojlanish dinamikasini ochib berish, aynan liderlardagi notiqlik qobiliyatining ijtimoiy jarayonlardagi rolini asoslash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev Yoshlar forumida yoshlarda liderlik qobiliyatini shakllantirish haqida to'xtalib o'tdilar "Yoshlarimizning liderlik qobiliyatini kuchaytirish, ularning faolligini oshirish, har tomonlama qo'llab-quvvatlash ilg'or ish tajribalarini ommalashtirish uchun "Kamalak yulduzlari", "Yilning eng faol yosh yetakchisi", "Yil sardori" kabi ko'rik-tanlovlarni o'tkazish, o'ylaymanki, maqsadga muvofiq bo'ladi. Shu bilan bir qatorda, oliy o'quv yurtlari o'rtasida Talabalar festivali, Intellektual o'yinlar haftaligi, "Yil talabasi" singari ko'rik-tanlov va musobaqalarni o'tkazish ularning intellektual salohiyatini va tashkilotchilik qobiliyatini yanada yuksaltirishga xizmat qiladi."

O'zbekiston yoshlari va talabalari forumida Davlatimiz rahbari iqtidorli yoshlar orasidan yangi avlod zahira kadrlari – "Kelajak liderlari"ni shakllantirish bo'yicha taklif bergan edi.

Falsafa va filologiyaga oid ilmiy lug'atlarda ingliz tiliga mansub bo'lgan "lider" so'zining "rahbar", "qo'mondon", "yo'l boshchi", "yetakchi" degan ma'nolarni anglatishi ko'rsatiladi. Jamoada ma'lum bir muammoni hal qilishda lider jamoa a'zolariga yordam beradi. Leadersiz hech bir guruh faoliyat ko'rsata olmaydi.

Biron-bir muammoli, nizoli vaziyatda paydo bo'lgan qiyinchilikni bartaraf etishdagi tashabbus, topqirlik va mohirlik liderga xos fazilatlardir. Muammoni yechish bilan bog'liq qiyin vaziyatda lider boshqalarga nisbatan o'zining ilg'orligi, peshqadamligi bilan ajralib turadi. Liderning asosiy vazifasi o'z ortidan insonlarni ergashtirgan holda yagona maqsad yo'lida birlashtirish va guruh a'zolari o'rtasida samarali munosabatlarni o'rnatishdir.

Shu o'rinda savol tug'iladi. Liderlik o'zi nima? Liderlik – dastavval shaxsning o'ziga, keyin esa o'zgalarga bera oladigan ta'sirida ko'rinadigan fazilatlar majmuidir. Keling uchta zamonaviy liderlik modelini ko'rib chiqamiz (aslida yetakchilik-liderlikning ko'plab tushunchalari va modellari mavjud):

1. Atributiv liderlik – (lot.attribution – qo'shib berilgan, ta'minlangan qo'shimcha qilingan) – lider, ya'ni yetakchi bo'ysunuvchilarning harakatlarini kuzatib boradi va kuzatuvlariga asoslanib, ularning har biri bilan munosabatlarni qanday qilib yaxshiroq o'rnatishni hal qiladi.

2. Xarizmatik liderlik – (yun.charisma – muruvvat, ilohiy qobiliyat – biror shaxsning boshqalarga nisbatan alohida xususiyatlarga egaligi (donoligi, qahramonligi, avliyoligi, topqirliqi) va shu fazilatlar yordamida xalqni boshqarishga haqli ekanligini ifodalaydigan tushuncha) – ta'sir yetakchining shaxsiy sifatlari (xarizmasi) va uning boshqaruv uslubiga asoslanadi.

3. Transformativ liderlik – (ing.o'zgaruvchan) – bunda lider o'z izdoshlari, deylik guruhdoshlari, xodimlarini, rivojlanishini, o'sishini rag'batlantiradi, ularning ongini oshiradi va ularni umumiy vazifalar muhimligiga ishontiradi.

Odatda, liderlik haqida gap ketganda, u yoki bu shaxsning alohida, boshqalarda bo'lmagan o'ziga xos fazilatlari nazarda tutiladi. Kishi o'zida «**liderlik**» sifatlarini shakllantirib, «**sardor**»ga aylanishi mumkin.

Yoshlar yetakchisining o'ziga xos xususiyatlari, ya'ni yetakchilik iste'dodining boshqalardan farqli ko'rsatkichlari qatorida yana quyidagilarni qayd etish mumkin: – tashkilotchilik ziyrakligi – o'zgalarni tushunish, ularning ichki olamiga kira olish, individual fazilati, kayfiyatini inobatga olgan holda masalaga yondashish;

- faol psixologik ta'sir kuchiga egalik – yuzaga kelgan vaziyatni hisobga olgan holda, ularning xususiyatidan kelib chiqib, insonlarga turli usullar bilan ta'sir o'tkaza olish;

– liderlik mas'uliyatini o'ziga olish.

Liderning asosiy xususiyatlaridan biri – yoshlar orasida “bir qadam oldin”da bo'lish. U yangiliklardan doimo xabardor, boshqalar uchun ochiq bo'lmagan axborotga ega bo'lishi kerak. Barcha jabhada yoki sohada axborotga egalik qilish

boshqalardan ustun bo'lish imkonini beradi. Yetakchi bunday manbani qayerdan, qanday topishni yaxshi biladi.

Guruhlar yoki jamoalarda o'ziga boshchilik rolini oluvchi shaxs bo'ladi. Psixologiyada bunday shaxslar lider deyiladi. Lider asosan guruhni tashkil etish va boshqarish uchun tayinlanishi yoki belgilanishi mumkin.

Lider quyidagi vazifalarni bajaradi:

- Guruhda maqsadga erishishning usul va yo'llarini rejalashtirish;
- Guruh a'zolari orasida javobgarlikni taqsimlash;
- Muayyan muhitni tashkil eta olish;
- Guruh a'zolarining faolligini oshirish.

O'zaro aloqalarda liderlarning ikki turi farqlanadi:

- Rasmiy lider;
- Norasmiy lider.

Rasmiy lider – asosan liderlikka saylangan yoki tayinlangan lider bo'lib, ushbu jamoaning faoliyatiga rasman javobgar hisoblanadi.

Norasmiy lider – rasmiy liderlik mavqeini egallamaganligiga qaramay, ko'pchilik tomonidan e'tirof etilgan, obro'ga ega bo'lgan liderdir.

Har bir lider o'z uslubiga ega. Liderlik uslublari quyidagicha:

- Avtoritar uslub;
- Demokratik uslub.
- Liberal uslub.

Demak, ayni bir jamoada, guruhda bir nechta liderlar bo'lishi mumkin. Agar guruhda liderlar ko'p bo'lsa, bu yaxshi holat. Lekin bunday holatda lider(yetakchi)larning axloqiy normalari bir-biriga zid kelmasligi lozim. Liderlarning turli-tumanligi jamoa, guruh hayotining turlicha bo'lishini ta'minlaydi.

Xulosa qilib aytganda, lider, nutq, notiqlik mahoratining tilshunoslik, fiziologik va psixologik tavsifini quyidagicha talqin etish mumkin:

– birinchidan, har bir soha jadallik bilan rivojlanayotgan hozirgi davrda ijtimoiy-madaniy hodisa sifatida lider shaxsidagi notiqlikning mohiyati va o'ziga xos xususiyatlarini anglash, uning sivilizatsiya tarixidagi genezisi va rivojlanish dinamikasini ochib berish, aynan liderlardagi notiqlik qobiliyatining ijtimoiy jarayonlardagi rolini asoslash muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jamoada ma'lum bir muammoni hal qilishda lider jamoa a'zolariga yordam beradi. Leadersiz hech bir guruh faoliyat ko'rsata olmaydi;

– ikkinchidan, tashkilotchilik ziyrakligi, faol psixologik ta'sir kuchiga egalik, tengdoshlar orasida "bir qadam oldin"da bo'lish yetakchilik iste'dodining boshqalardan farqli ko'rsatkichlari qatorida qayd etiladi

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Karimova V. Ijtimoiy psixologiya va ijtimoiy amaliyot. Toshkent. 1999.
2. Кон И.С. Психология юношеского возраста. М., 1990.
3. Omonov B. Siyosiy yetakchining notiqlik mahorati. -T.: "O'zbekiston", 2000.
4. Raximova D., Bekmurodov M. Liderlik va tashkilot madaniyati. -T.: "Akademiya", 2006

Internet Manbalari:

1. www.fikr.uz
2. uz.m.wikipedia.org
3. uprav.ru
4. www.orator.ru